



M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310



MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.

TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari)	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов.....	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishida qо'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati.....	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'lими tashkil etish mexanizmini takomillashtirish	36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдана Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish	52
Sotiboldiyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarda ikki tomonlama yondashuv	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi	70
Abdullahayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
О специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении	80
Tillashayxova Xosiyat Azamatovna	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati	84
Jo'rayerova Sohibjamol Norqobilovna	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ СОНТЕНТС

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Ekspериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе "Руководитель - Подчиненный"	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Kopинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде	113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна	
Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish	117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова "Отверзи мне двери" и Улугбека Хамдама "Бунт и смирение"	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrleshga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarini ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning bilingual rivojlanish	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Vliyanie igrovoy deyatel'nosti v processe izucheniya anglijskogo jazyka v doo.....	157
Ergashewa Kamola Alisherovna	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children	161
Gaukhara Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	

KELAJAK – BIZ TAYYORLAGAN TARBIYACHILAR QO'LIDA (TARBIYA TAMOYILLARI)



Hamdamova Mahzuna Tursunovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lif
fakulteti dekani, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya tamoyillari, yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan holda komil insonni tarbiyalashning mazmuni va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, kelajak, tarbiyachi, tarbiya tamoyillari, bola, yosh avlod.

Abstract: This article describes the principles of education, the main ideas and rules arising from the goal of educating the younger generation and defining the most important requirements for the content and direction of educating a perfect personality.

Key words: education, future, educator, principles of education, child, young generation.

Аннотация: В данной статье описаны принципы воспитания, основные идеи и правила, вытекающие из цели воспитания подрастающего поколения и определяющие важнейшие требования к содержанию и направленности воспитания совершенной личности.

Ключевые слова: образование, будущее, воспитатель, принципы воспитания, ребёнок/воспитанник, молодое поколение.

KIRISH

Pedagogik adabiyotlarda "tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakkantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirotini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirilar, harakatlar, tilishlar yig'indisini anglatadi.

Bunday tushunchada tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy hayot, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniya va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagini mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek xalqi o'zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta'lif-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stilik, olijanoblik, mehr-oqibat va odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakkantirishning o'ziga xos tajribasi yashab keladi. Bizga ma'lumki, ma'naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki ularni kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta'lif-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda hadislar o'zida jamlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Hadislarda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Bois dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'pilagini Islom xalqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda

zarracha mubolag'a yo'q [1:342]. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'o-yalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlari ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda.

O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklari guvoh bo'lamiz. Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos hissa qo'sha organligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtayi nazariga ko'ra, ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayoniga xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, tarbiyaviy ishlami tashkil etishda mazkur yondashuvlarni hisobga olish juda muhimdir:

- **Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv:** mazkur yondashuvning mohiyati – Bixevoiristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta'sir sifatida qarash;
- Har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchida uning so'zlari, xatti-harakati yoki amallarida namoyon bo'ladigan ma'lum javobni yuzaga keltiradi. Maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayon sifatida tarbiya jarayoni atrofdagilarning xatti-harakatlari va xulqiga tabiiy moslashishni talab etadi;
- **Aksiologik yondashuv:** mohiyati - insonning jamiyatdagi hayotining o'zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiy qadriyatli yo'nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarini o'zlashtirish va Interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi. Ijtimoiylashtirishga doir yondashuv: tarbiyaga "hayot maktabi" sifatida qarash; ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirish; hayotiy tajribani sotsiumda egallah; sotsi-umda ijodiy o'z-o'zini rivojlantirishni qo'lab-quvvatlash.
- **Germenevtik yondashuv:** insonparvarlikka doir hodisalarni tushunish va talqin qilishning G-nazariyasi; subyektning psixologik tajribasiga, kechinmaga murojaat; tarbiyachi va bola dialogi sifatida tashkil qilinadigan pedagogik o'zaro hamkorlik vaziyatida kechinmalarni yuzaga keltirish; tarbiyalanuvchi hayot mazmuni va uning hayot qadriyatlariga nisbatan munosabatini tushunish.
- **Sinergetik yondashuv:** shaxsni o'zgartirish yo'llarining variativligi; bifurkatsiya (tanlov) nuqtasidan foy-dalanish; shaxsning ichki imkoniyatlari. Antropologik yondashuv: insonparvarlik pedagogikasi, refleksiv pedagogika; individual qobiliyatlarni rivojlantirish o'z-o'ziga tarbiya ehtiyojini rivojlantirish insonparvar maqsadlarni axloqiy fazilatlar (insoniylik, ishonch, minnatdorlik, chidamlilik sifatida qo'yish tashxislash shaxsning o'z-o'zini belgilashini ta'minlash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarbiya tamoyillari tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar bo'lib, yosh avlodni tarbiyalash, barkamol insonni shakllantirish vazifalariga muvofiq belgilanadi, shuningdek, ular shaxs tarbiyasi borasidagi ilg'or ta'limotlar g'oyalariga hamda pedagogika fanida erishilgan yutuqlarga asoslanadi.

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;
- Tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarning ustunligi;
- Tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- Tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish;
- Tarbiyada bolaning yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash;
- Tarbiyada bola xulqidagi ijobji sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish;

Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi – tarbiyachi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlardidan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirishi, ularni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir.

Bu sohada Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lif xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodiy, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis va komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabgacha va undan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

Tarbiyachilar tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat ekanligini bilishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi – tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bolaning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim.

Tarbiyani demokratlashtirish bu – tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'tasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. Tarbiyachi bolaga avvalgidek, tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt, deb qarashi darkor. Ya'ni bolani teng huquqli hamkor, hamfikr, deb qarash lozim.

Umuman, ta'lif va tarbiyani insonparvarlashtirishning pedagogik diqqat-e'tibor markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni bolalar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun daxldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'analar, urf-odatlari haqida ma'lumotlar. berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalar uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Tarbiyada izchillik va tizimlilik - tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard nati-jasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. Bolalarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Tarbiyachilar bolalarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmashliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish muhim. Yosh avlodning o'sib ulg'ayishi va shaxsning shaklanishiga hayot, ijtimoiy jamiyatga tasir etadi. Bu bir tomonidan bo'lsa, ikkinchidan bolalarni tarbiyalashdan maqsad uni mustaqil hayot uchun tayyorlashdir.

Tarbiyani mehnat bilan bog'lab olib borish. Mehnatning tarbiyaviy tasiri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati hamda iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat bola shaxsiga ijobjiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi.

Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish – bolalarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi.

Bola shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishiga, doimo bolalarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsagina shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi tarbiyachiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

Tarbiyada bolaning yoshi va alohida xususiyatlarini hisobga olish – tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yoshi va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabgacha ta'lif tashkilotlarida rivojanishining turli davrlarini bolalik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojanadi, xulqi va ongi o'tasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir bolaning shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylilik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatlari har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir bolaga nisbatan foydali metodni boshqa bolaga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib, chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir bola xususiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.



Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash – tarbiya jarayoni bolalarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Bu Vatan tuyg'usi shakllangan jamoa a'zolarining qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi va jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. Bolalar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatlari bo'ladi. Yaxshi uyushgan jamoada jamoa fikri katta tarbiyaviy kuchga ega bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. Tarbiyachi hamma vaqt bolalar jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o'rgatib borishi lozim.

Tarbiyada bola xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo'qotib borishga e'tibor qaratish lozim. Mahoratlari pedagoglar o'z bolalarining shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko'radilar. Boladagi ijobiy sifatlarga tayanish uning salbiy sifatlarini yo'qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to'g'ri hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyachi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga egadir. Innovatsion jarayonlar maktabgacha ta'larning rivojlanishidagi muntazamlik va tashkilotning ishidagi bunday o'zgarishlarga tegishli bo'lib, u xodimlarining faoliyati va fikrlash tarzining o'zgarishi bilan birga namoyon bo'ladi. Ta'limgagi innovatsion faoliyat o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchi xususiyat, innovatsion jarayon subyektlari bolalar va ota-onalardir. Agar bu e'tiborga olinmasa, unda pedagogik innovatsiya haqiqatan ham ta'limi bo'lgan hamma narsani, innovatsion faoliyatning butun gumanistik tarkibiy qismini tashlab yuboradi.

Pedagogik innovatsiyalarning ikkinchi ajralib turadigan xususiyati iloji boricha ko'proq pedagogik muammolarni muntazam ravishda yoritib berish zarurati sanaladi. Pedagogik innovatsiyalar samaradorligini belgilovchi shart bu – xususiy metodologiyaning muammolarini hal qilishda umumiy savollar beriladigan va mavjud didaktik tamoyillarni yangicha qayta ko'rib chiqishni boshlaydigan o'qituvchilarning tadqiqot faoliyati bilan bog'liq. Ta'limga sohasiga kelsak, innovatsiyalarni yangi mazmun, usul, o'quv jarayonini tashkil etish shakli yoki ta'limga sohasidagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatishga yangi yondashuv shaklida, ota-onalarning iltimoslari asosida, ya'ni yangi innovatsiyalarning yakuniy natijasi, deb hisoblash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion faoliyatni muvaffaqiyatlari tashkil etish va amalga oshirish tarbiyachilar tarkibiga, ularning innovatsion g'oyadan xabardorligiga bog'liq. Innovatsion ta'limga sharoitida tarbiyachi o'z shaxsini o'zi belgilashni maktabgacha tarbiya tashkiloti xodimlari o'rtafigi konstruktiv munosabatlarda faol tizimlashadi.

Xususan, kontseptuallik, o'quv jarayoni ma'lum ilmiy tushunchaga asoslanishi kerakligini anglatadi. Tizimga tegishli texnologiyalar, bu texnologiyalar tizimga xos bo'lgan barcha belgilarga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, ular yaxlit, mantiqiy va ularning elementlarining tarkibiy qismi bo'lishi kerak. Ishlov berish – pedagogik jamoa muayyan maqsadlarni belgilash, o'quv jarayonini rejalashtirish, ish jarayonida, bir yoki boshqa lahzalarni tuzatish imkoniyatini tushunishi kerak. Reprodikuvchanlik talabiga nisbatan qo'llaniladigan o'qituvchi shaxsidan qat'i nazar texnologiyani teng darajada samarali qo'llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maximov Q. S., Shayxislamov, N. Z. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalaniishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).
5. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. Academic research in educational sciences, (3).
6. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. Academic research in educational sciences, 2 (Special Issue 2)..
7. Gaynazarova Gulbakhor Abdullayevna. (2023). Importance Of Pictures Based On Fairy Tales In Spiritual And Moral Education Of Preschool Children. Academia Science Repository, 4(6), 289–292.



Muharrir: Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 2-3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamatardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**